



«BOLA HUQUQI BOLALAR TARBIYASIDA OTA-ONANING O'RNI»

Baxtiyor Mexritdinovich

*Buxoro viloyati Qorako'l tumani
36-maktab MMIBDU Qurbonov*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsning kamol topishida oilaning yetakchi ta'sirini oila tarbiyasining o'ziga xos milliy xususiyatlari va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari, farzand tarbiyasida qo'llanadigan usul va vositalar, insoniyatning ma'naviy rivojlanishi bilan oilada farzand tarbiyasining uyg'unligi, oilada farzand tarbiyasidagi mahorat va madaniyatga amal qilish, oila tarbiyasiga doir muammolarning holati, qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan masalalar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** muhit, oila, tarbiya omillari, shaxs, burch, axloq, ma'naviyat, mas'uliyat.*

Oilada ota-onalar namunasi bolalar uchun hayot darsi hisoblanadi. Otaning onaga, ona mehnatiga, jamiyatga, jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabati bola qalbiga yaxshilik yoki yomonlik, ma'qul va noma'qul ishlar haqidagi dastlabki tushunchalarini vujudga keltiradi.

Oil muhiti- bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila a'zolarining o'zaro yuksak ahloqiy munosabatlarining yig'indisi va nihoyat, kattalarning bolalarga ijoboy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasidir. Ruhiiy muhiti sog'lom oila a'zosi bo'lgan bolaning birinchi bor maktabga borishi qanchalik hayajonli bo'lmasin bola uchun jiddiy qiynchiliklar tug'dirmaydi. Chunki maktabda o'qituvchi hamma bolalarga bir ko'z bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan alohida erkatoyga qarash qilmasdan, maktab uning o'zi uchun kerak bo'lgan burch, sifatida qaragan ma'qul. Albatta, mana shunday qaralgandagina bola uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burchsifatida qarashga o'rganib boradi. Ma'naviy tarbiya asoslarini yirik fundamental darajalarda o'rgangan olimlarimiz tomonidan shaxs ma'naviyatining



takomillashuv bosqichlari yoki ma'rifat yo'llari sifatida ibrat ko'rsatish, ilmga intilish, riyozatga o'rgatish va mehr ko'rsatish alohida ta'kidlanadi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida, eng muhimi bola ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarni yozadi. Ularning hammasi bir butun bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma'naviy-axloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi g'oyaga borib taqaladi. Ibn Sinoning "Tadbiri al-manozil" nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangandir.

Qush uyasida ko'rganini qiladi degan maqol bor. Yigit yoki qiz turmush qurib, farzandli bo'lgach uyida ko'rgan tarbiya bo'yicha ish ko'radi. Agar chaqaloqning otasi boshqacha onasi boshqacha tarbiya bersa, o'rtada farzand qiynaladi. Bunday farzand kelajakda jur'atsiz, o'ziga ishona olmaydigan, beqaror bo'lib voyaga etadi. Shuning uchun ota-onalar bitta yo'lni tanlashlari kerak.

Bizda bir matal bor: "Bir kuni bir er-xotin farzand ko'rishibdi. Ular farzandlarini allomaning oldiga olib borishibdi. Ular: "Ustoz farzandimizga qachondan tarbiya bersak bo'ladi" – deb so'rashibdi. Alloma chaqaloqning ota-onasidan: "Qachon tug'ildi?" – deb so'rabdi. "Uch kun bo'ldi" – deb javob qilishibdi. Shunda alloma: "Uch kunga kechikibsizlar. Bolangiz tug'ilgani hamono tarbiya berishni boshlashingiz kerak edi" – debdi. Shundan ko'rinib turibdiki bolaga tarbiya berishni hech ham kechiktirib bo'lmaydi. Siz nima eksangiz shuni o'rasiz. Bolangizga bergan tarbiyangiz uning kelajakda qanday odam bo'lishini ta'minlaydi. Farzandingizning yaxshi odam bo'lishini xohlasangiz unga yaxshi tarbiya berishga harakat qiling. Bolangiz yosh bo'lganida uning tarbiyasi ustida qancha ko'p mehnat qilsangiz, kelajakda uning yaxshi samarasini ko'rasiz.

Maktab ostonasiga oyoq qo'yish har bir inson uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg'ubor onlariga bir



qadarcheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba'zi burchlarni o'z shaxsi uchun zarur bo'lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga o'tadi. Bu bilan uning oiladagi vazifasi, burchi ko'paygan bo'ladi. O'z burchini majburan qilib o'rgangan bola mustaqillikka o'rganmaydi. Shunday ekan biz hammamiz o'z bolamizning mustaqil bo'lishini juda-juda kutamiz va mustaqillikka o'rgatib boramiz. Mustaqil, o'zini o'zi tejab-tergashga o'rganib borgan bolagina o'z hayotini to'liq ta'min qilib boradi. Agarda bolaga doim uning ruhiy va amaliy ishlarini ko'rsatib, ularni bajarishga majbur qilib borsangiz bu holda oilada notenglik yuzaga keladi va oila a'zolari o'rtasida notenglik bo'lgan holda ruhiy muhit sog'lom bo'lmaydi. Oilada bolani hech vaqt uyaltirmaslik va izza qilmaslik lozim. Har qanday inson boshqalar oldida uyalishni, uyalganlikni og'ir esdan chiqaradi. Ko'pchilik orasida izza bo'lganligini bir umr esdan chiqarmasligi mumkin.

Oilada bolalarning kattalarga bo'lgan mehribonligi tarbiya natijasidagina tarkib topadigan ma'naviy fazilat ekanligi ta'kidlanadi. Tarbiyani insonga yetkazishda ota-onaning o'rni beqiyosligini Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) ta'kidlaydilar. Abu Hurayra (roziyallohu anhu) dan rivoyat qilinadi: "Nabiy (sollallohu alayhi va sallam): "Har bir tug'ilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) bilan tug'iladi. Bas, ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi...". Bu hadisi sharifdan irsiyat, ya'ni biologik omil insonni shakllanishida asosiy o'rin tutadi degan fikrni ilgari suruvchi G'arb faylasuf va oqimlarining fikrlari asossiz ekanini va tarbiyaning muhimligini bilib olamiz. O'rta Osiyolik mutafakkirlardan Forobiy va Abu Ali ibn Sino inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berganlar.

Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: Munosib inson bo'lish uchun insonda ikki xil imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa



kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir..." deydi. Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: "Bola tug'ulgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi.

Inson yaralibdiki o'zining oilasida tarbiyalanadi. Onalar farzand tarbiyasida hamisha oilada muhim o'rin tutganlar. Farzand tug'ulgandan keyin ham otasi ish yoki boshqa sabablar bilan ko'p vaqt uyda bo'lmaydi, tarbiyaga doir zarur og'itlar, ko'rsatmalar bergan holda, asosiy ishi moddiy ta'minot bo'lib qolaveradi. Illo, ona soliha, ilmi bo'lsa, farzandi kelajakda buyuk inson bo'lib yetishishi uchun astoydil harakat qiladi. Agar "nega farzand tarbiyasi yolg'iz mening zimmamda bo'lar ekan?!" deya u ham tarbiya bilan shug'illanmasa, nafaqat bir bolaning balki butun boshli millatning kelajagini barbod qiladi.

Ulug'larimiz hayotiga nazar soladigan bo'lsak, ularning onalari hatto otlari vafot qilganda ham moddiy ta'minotni o'z zimmalariga olishgan, han farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishgan. Yillar davomida chekilgan zahmat natijasida Imom Ahmad, Imom Buxoriy kabi buyuk insonlar yetishgan. Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" asarida shunday yozgan edi: "Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham shunday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" asarida shunday yozgan edi: "Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham shunday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar.

Onaning tarbiya maskani zararga yo'liqsa, nasllarda o'nnglanmaydigan yaralar ochiladi, onani yuqotadi. Farzandning ilk tarbiya makoni onaning ko'ksidir. Bolaning dunyo va ohirat hayotiga bog'liq bilimlarga ona mehru muhabbati bilan berilishi eng go'zal tarbiya shaklidir. Bolaning tarbiyalanishida ota-onalar o'z



farzandlariga ma'naviy merosimiz bo'lgan milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar, udumlarning o'ziga xosligini asta sekinlik bilan tushuntirib borishga ma'suldirlar. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek "Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, imyon e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir".

Farzandning tarbiyalanishida ota-onalar diniy ta'limotlarga ham alohida ahamiyat berishlari lozim. Diniy tarbiyada bola Vatanga muhabbat bilan ajdodlarga sadoqat ruhida tarbiyalanadi. Bola tarbiyalashda buyuk mutafakkir bobomiz Mirzo Ulugbek shunday deganlar: "Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim". Shunday ekan, har bir ota-ona farzandining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Har bir ota-ona farzand tarbiyasida albatta ota-bobolarning fikrlariga e'tiborli bo'lishlari kerak. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro' olib keladigan yuzlarini yorug' va boshlarini yuqori qiladigan farzand bo'lib ulg'ayishadi. Ota-ona bolaning vaqtini to'pa qamrab oladigan zarur va manfaatli mashg'ulotlarni tayyorlashi kerak va ana o'sha mashg'ulotlar bolaning ongini rivojlantirivchi bo'lishi shart.

Shunday ekan, oilangizda ruhiy muhit sog'lom bo'lsin desangiz bolangizning hozirgina qilgan noo'rin, xato, adashilgan, anglashilmovchilik yuzasidan, uning tajribasizligidan kelib chiqqan hatti-harakatini qoralab uni jazolab o'tirmang, ayniqsa voqeani yuziga solib izza qilmang. Shu borada agar bu voqeadan uning biror tanishi voqif bo'lishi xavfi bo'lsa, kechinma yanada kuchliroq tus olishi mumkin. Bolani xato bo'lishi mumkin bo'lgan ishlardan ogohlantirib tarbiyalab borsangiz uning oiladagi o'rnini kamsitmagan bo'lasiz. Piyola bolangizning qo'lidan tushib ketib singanda emas, bu piyola sinib bo'ldi, undan ko'p vaqt ilgari ish buyurganingizda «ehtiyot bo'l, sinib qolmasin», degan



tarbiyaviy soʻzlardan boshlang. Bola oʻz irodasi bilan kunduz maktabda buyurilgan ishlarni bajarishga oʻrgansa, kechqurun ishdan qaytganingizdan keyin siz uni dars tayyorlashga majbur qilishingizga oʻrin qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda bola shaxsining kamol topishida doimiy ravishda muhitning taʼsiri sezilib turadi. Muhit – bu insonga taʼsir etuvchi tashqi voqea-hodisalar yigʻindisi hisoblanadi. Tarbiya jarayonida muntazam ravishda tarbiyalanuvchida tashqi voqea-hodisalar oʻzining ijobiy yoki salbiy taʼsirini oʻtkazib turadi. Buning uchun esa tarbiyalanuvchidagi oʻzgarishlarga ota-onalar vaoʻqituvchilar doimiy ravishda eʼtiborli boʻlib, ijobiy taʼsirlarni rivojlantirishga harakat qilishi va erishishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Inomova M. Oilada bolalarning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasi.- T.:Fan,1999.
2. Ibn Sinoning “Tadbiri al-manozil” nomli asari.
3. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.
4. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.